

O‘SMIRLIK DAVRIDA SHAXSIY IDENTIFIKATSIYASI INQIROZI: GENDER TENGLIGI VA IJTIMOY OMILLAR TA’SIRI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-418-423>

Saidxo‘jayeva Ziyodaxon Sayfullayevna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti,
psixologiya yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: D.B. Botirova

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti v.b.
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD,

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smirlik davrida shaxsiy identifikatsiya inqirozining shakllanishi hamda unga gender tengligi va ijtimoiy omillarning ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘smirlarning “Men kimman?” degan savolga javob izlash jarayonida yuzaga keladigan psixologik qiyinchiliklar, ichki ziddiyatlar va emotsional holatlar yoritiladi. Shuningdek, gender stereotiplari, oilaviy muhit va ijtimoiy munosabatlarning shaxs rivojiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi tamoyillariga asoslangan ijtimoiy muhit o‘smirlarning sog‘lom psixologik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan xulosalar ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va psixologik yordam ko‘rsatishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, shaxsiy identifikatsiya, gender tengligi, identiklik inqirozi, ijtimoiy omillar, o‘zini anglash.

Abstract. This article examines the problem of personal identity crisis in adolescence and the influence of gender equality and social factors on its development. The study analyzes psychological difficulties experienced by adolescents while searching for self-identity, including emotional instability and internal conflicts. Special attention is given to the role of gender stereotypes, family environment, and social interactions in shaping personal identity. The findings indicate that a socially supportive and gender-equal environment plays a crucial role in adolescents’ psychological well-being and identity formation. The results may be applied in educational practice and psychological counseling.

Key words: adolescence, personal identity, gender equality, identity crisis, social factors, self-concept.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема кризиса личностной идентичности в подростковом возрасте и влияние гендерного равенства и социальных факторов на его развитие. В исследовании анализируются психологические трудности, с которыми сталкиваются подростки в процессе поиска собственной идентичности, включая эмоциональную нестабильность и внутренние конфликты. Особое внимание уделяется роли гендерных стереотипов, семейной среды и социальных взаимодействий в формировании личности. Полученные результаты свидетельствуют о том, что социально поддерживающая и гендерно равноправная среда играет ключевую роль в психологическом благополучии подростков и формировании их идентичности. Результаты исследования могут быть использованы в образовательной практике и психологическом консультировании.

Ключевые слова: подростковый возраст, личностная идентичность, гендерное равенство, кризис идентичности, социальные факторы, концепция «Я».

Zamonaviy psixologiya fanida o'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur davrda insonning o'zini anglash jarayoni faollashib, shaxsiy qadriyatlar, hayotiy maqsadlar hamda jamiyatdagi o'rnini haqida tasavvurlar shakllana boshlaydi. Aynan shu bosqichda shaxsiy identifikatsiya muammosi markaziy o'rin egallab, o'smir shaxsining keyingi rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

O'smirlik davrida qizlar “Men kimman?”, “Jamiyatda mening o'rnim qanday?”, “Qanday bo'lishim kerak?” kabi muhim savollar bilan yuzma-yuz keladilar. Ushbu savollar shaxsning o'zini anglashiga xizmat qilishi bilan birga, ayrim holatlarda ichki ziddiyatlar, emotsional beqarorlik, xavotir va o'ziga ishonchsizlik kabi holatlarni ham yuzaga keltiradi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri, tengdoshlar bosimi, gender stereotiplari hamda oilaviy munosabatlar ushbu jarayonni yanada murakkablashtirmoqda.

Gender tengligi masalasi o'smirlik davrida shaxsiy identifikatsiyaning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim ijtimoiy omillardan biridir. Jamiyatda mavjud bo'lgan genderga oid qarashlar va kutishlar qizlarning o'zini anglash jarayoniga sezilarli ta'sir etib, ularning o'z imkoniyatlarini baholashi va ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois shaxsiy identifikatsiya inqirozini gender tengligi va ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o'smirlik davrida qizlarda yuzaga keladigan shaxsiy identifikatsiya inqirozini ilmiy asosda tahlil qilish, uning psixologik oqibatlarini aniqlash hamda gender tengligi va ijtimoiy muhitning ushbu jarayonga ta'sirini yoritishdan iboratdir.

O'smirlik davrida shaxsiy identifikatsiya muammosi zamonaviy psixologiya fanining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davr inson hayotida shaxsiy “Men”ni anglash, ijtimoiy rollarni qabul qilish hamda jamiyatdagi o'rnini belgilash jarayoni bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, gender omili va ijtimoiy muhit ta'siri o'smir shaxsining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur masala ilk bor tizimli tarzda E. Erikson tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'smirlik davrini psixosotsial rivojlanishning muhim bosqichi - “identiklikka erishish yoki rol chalkashuvi” davri sifatida talqin etadi. Olimning fikricha, aynan shu davrda shaxs “Men kimman?” degan savolga javob izlaydi va bu jarayon muvaffaqiyatli kechgan taqdirda barqaror shaxsiy identitet shakllanadi. Aks holda esa ichki ziddiyatlar, ishonchsizlik va shaxsiy inqiroz holatlari yuzaga keladi. Erikson identik shakllanishida oila, jamiyat, madaniy qadriyatlar hamda ijtimoiy kutishlarning ta'sirini alohida ta'kidlaydi [1, 112–128-b].

R.S. Nemov va S.L. Rubinshteyn tadqiqotlarida o'smirlik davriga xos bo'lgan emotsional beqarorlik, o'z-o'zini baholashdagi o'zgaruvchanlik va ichki ziddiyatlar shaxsiy identifikatsiya jarayoni bilan uzviy bog'liq ekani ko'rsatib berilgan. Ularning ta'kidlashicha, aynan shu davrda shaxs ijtimoiy baholarga nisbatan sezgir bo'lib, tashqi ta'sirlarga kuchli darajada ta'sirchanlik namoyon etadi [2, 145–162-b].

O‘zbek psixologiya ilmidagi ham mazkur masala muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Xususan, E. G‘oziyev o‘z ilmiy ishlarida o‘smirlik davrida shaxs rivojiga ijtimoiy muhit, oiladagi tarbiya uslubi va gender rollarining ta‘sirini chuqur tahlil qilgan. Olimning fikricha, oilada gender tengligi tamoyillarining buzilishi yoki stereotiplarning ustunligi qizlarda o‘ziga ishonchsizlik, ijtimoiy faollikning pasayishi va identifikatsiya inqirozining kuchayishiga olib keladi [3, 87–94-b].

D.B. Feldshteyn esa o‘smirlik davrini “o‘zini izlash va o‘zini anglash davri” sifatida baholab, ayniqsa qizlarda tashqi ko‘rinish, jamiyat bahosi va tengdoshlar fikriga qaramlik yuqori bo‘lishini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy axborot muhitida ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy stereotiplar qizlarning o‘zini baholashiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi, bu esa identifikatsiya inqirozini yanada chuqurlashtiradi [4, 56–71-b].

Zamonaviy tadqiqotlarda shaxsiy identifikatsiya inqirozining emotsional holat bilan bevosita bog‘liqligi alohida ta‘kidlanadi. Psixologik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini anglashdagi qiyinchiliklar depressiv holatlar, xavotir, ijtimoiy chekinish hamda past o‘z-o‘zini baholashga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, gender tengligi ta‘minlanmagan muhitda voyaga yetayotgan qizlarda bu holatlar yanada yaqqol namoyon bo‘ladi [5, 201–215-b].

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davridagi identifikatsiya muammosi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan qizlarda gender omili, ijtimoiy stereotiplar va ijtimoiy muhitning shaxsiy identifikatsiyaga ta‘siri yetarlicha kompleks yoritilmagan. Ayniqsa, “Men” konsepsiyasining shakllanishi va uning psixoemotsional holat bilan o‘zaro bog‘liqligi chuqurroq tahlilni talab etadi.

Shu bois mazkur tadqiqot o‘smir qizlarning shaxsiy identifikatsiya inqirozini gender tengligi va ijtimoiy omillar nuqtayi nazaridan tahlil qilishga, shuningdek, uning psixologik oqibatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu sohadagi ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot o‘smirlik davrida qizlarda shaxsiy identifikatsiya inqirozining shakllanishi hamda unga gender tengligi va ijtimoiy omillarning ta‘sirini psixologik jihatdan tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotning metodologik asosi shaxs psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi hamda ijtimoiy-psixologik yondashuvlar uyg‘unligida ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va tahliliy usullar majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tavsifiy metod -o‘smirlik davrida shaxsiy identifikatsiya jarayonining umumiy xususiyatlarini ochib berish, mazkur davrga xos psixologik holatlarni tavsiflash hamda mavzuga oid nazariy qarashlarni yoritishda qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida shaxs rivojlanishining muhim bosqichlari va ularning psixologik mazmuni izohlandi.

Tahliliy metod -shaxsiy identifikatsiya inqirozi, “Men” konsepsiyasi, emotsional holat va gender omillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy

adabiyotlar asosida chuqur tahlil qilish maqsadida qo'llanildi. Bu metod orqali mavzuga oid mavjud ilmiy qarashlar tizimli ravishda o'rganildi va umumlashtirildi.

Qiyosiy metod -turli olimlarning o'smirlik davri va shaxsiy identifikatsiya masalasiga doir yondashuvlarini taqqoslash, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda zamonaviy ilmiy qarashlar bilan solishtirish uchun xizmat qildi. Ushbu metod yordamida identiklik muammosining turli nazariy talqinlari ochib berildi.

Psixologik tahlil metodi -o'smir qizlarda uchraydigan ichki ziddiyatlar, o'zini anglash jarayonidagi qiyinchiliklar, emotsional beqarorlik va ijtimoiy moslashuv muammolarini tahlil qilishda qo'llanildi. Bu metod orqali shaxsiy identifikatsiya inqirozining psixologik oqibatlarini aniqlashtirildi.

Umumlashtirish metodi -tadqiqot davomida olingan nazariy xulosalarni tizimlashtirish, asosiy ilmiy g'oyalarni jamlash va yakuniy natijalarni shakllantirishda foydalanildi. Mazkur metod tadqiqotning mantiqiy yakuniga erishishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot materiali sifatida rivojlanish psixologiyasi, yosh davrlar psixologiyasi va shaxs nazariyasiga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalar hamda zamonaviy ilmiy maqolalar tanlab olindi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning o'smirlik davriga oid tadqiqotlari tahlil qilinib, ularning ilmiy xulosalari umumlashtirildi va mazkur tadqiqot doirasida qayta talqin qilindi [6, 181–210-b].

1. O'smirlik davrida shaxsiy identifikatsiyaning psixologik xususiyatlari. O'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda shaxsiy identifikatsiya jarayoni faollashadi. Ushbu bosqichda shaxs o'zining ichki “Men”ini anglash, jamiyatdagi o'rnini belgilash hamda shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishga intiladi. Identifikatsiya jarayoni o'smirning o'ziga, atrof-muhitga va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatini belgilab beruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, o'smirlik davrida identifikatsiya jarayoni bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Avvalo, bu davrda o'zini anglash jarayoni faollashadi, ya'ni o'smir o'zining qobiliyatlari, tashqi ko'rinishi, xarakter xususiyatlari va imkoniyatlarini baholashga harakat qiladi. Shu bilan birga, emotsional beqarorlik kuchayib, kayfiyatning tez-tez o'zgarishi, sezgirlikning ortishi va ichki xavotir holatlari kuzatiladi.

Shuningdek, o'smirlik davrida ijtimoiy ta'sirchanlik kuchli namoyon bo'ladi. O'smirlar, ayniqsa qizlar, tengdoshlar fikriga yuqori darajada bog'liq bo'lib, ijtimoiy bahoni muhim mezon sifatida qabul qiladilar. Bu holat ularning o'z-o'zini baholashiga va shaxsiy identifikatsiya jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, “men qandayman?” va “men qanday bo'lishim kerak?” degan savollar o'rtasidagi ichki ziddiyatlar kuchayib, shaxsiy identifikatsiya inqirozining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ayniqsa, qizlarda bu jarayon hissiy sezgirlikning yuqoriligi, tashqi bahoga bo'lgan ehtiyoj va ijtimoiy taqqoslashning kuchayishi bilan kechadi. Natijada

shaxsiy identifikatsiya jarayoni murakkablashib, ruhiy holatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [7, 86–97-b].

2. Shaxsiy identifikatsiya inqirozining psixologik oqibatlari va ijtimoiy ahamiyati. Shaxsiy identifikatsiya inqirozi o'smir qizlarning psixologik holatida muhim o'zgarishlarga olib keladi. Bu jarayon, avvalo, o'z-o'zini baholashning pasayishi, ichki ishonchsizlik va emotsional beqarorlik bilan namoyon bo'ladi. O'smirlar o'zlarini tengdoshlar bilan solishtirish orqali baholay boshlaydi, natijada o'ziga nisbatan norozilik va ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, identifikatsiya inqirozi quyidagi psixologik holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi va o'zini past baholash;
- tashqi ko'rinishga haddan tashqari e'tibor qaratish;
- yolg'izlik hissi va ijtimoiy chekinish;
- xavotir, tushkunlik va emotsional zo'riqish holatlari.

Mazkur jarayonning ijtimoiy jihatlari ham alohida ahamiyatga ega. O'smir qizlarning shaxsiy identifikatsiyasi ko'p jihatdan oila muhiti, ota-onaning munosabati, pedagogik yondashuv hamda tengdoshlar bilan bo'lgan ijtimoiy aloqalar bilan belgilanadi. Ijobiy psixologik muhit mavjud bo'lgan sharoitda identifikatsiya inqirozi yumshoq kechadi va shaxsning sog'lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

Aksincha, yetarli psixologik qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lmagan holatlarda ushbu jarayon salbiy oqibatlarga olib kelishi, ya'ni ijtimoiy moslashuvning buzilishi, ruhiy zo'riqish va shaxsiy rivojlanishning sekinlashuviga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish, o'smirlar bilan individual ishlash hamda ularning ichki kechinmalariga e'tibor qaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'smirlik davrida qizlarda shaxsiy identifikatsiya jarayoni murakkab psixologik va emotsional omillar ta'sirida shakllanadi hamda shaxs rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Birinchidan, shaxsiy identifikatsiya o'smir qizlarning o'zini anglash jarayoni bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, “Men kimman?” degan savolga javob izlash jarayonida o'smirlar o'z tashqi ko'rinishi, xulq-atvori va ijtimoiy mavqeini qayta baholay boshlaydi. Bu jarayon o'zini tanqid qilishning kuchayishiga va ichki ziddiyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Ikkinchidan, identifikatsiya inqirozi o'smir qizlarning emotsional holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qizlarda quyidagi holatlar kuzatiladi:

- xavotir darajasining oshishi;
- kayfiyatning tez-tez o'zgarishi;
- o'ziga ishonchsizlikning kuchayishi;
- ijtimoiy chekinish va yolg'izlik hissi.

Uchinchidan, shaxsiy identifikatsiya ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Oila muhiti, tengdoshlar bilan munosabatlar va ta'lim

muassasalaridagi psixologik qo'llab-quvvatlash qizlarning o'zini anglash jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit mavjud bo'lgan hollarda identifikatsiya inqirozi nisbatan yengil kechadi va shaxsning sog'lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda shaxsiy identifikatsiya jarayoni faol shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qizlarda kechadigan identifikatsiya inqirozi ularning ruhiy holati, o'ziga bo'lgan munosabati va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir qiladi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, “Men kimman?” degan savol o'smir shaxsining shakllanishida markaziy o'rin tutadi. Ushbu savolga javob izlash jarayonida o'smir qizlarda ichki ziddiyatlar, emotsional beqarorlik va o'ziga ishonchsizlik kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin. Biroq ijobiy psixologik muhit va to'g'ri pedagogik yondashuv mavjud bo'lgan hollarda, bu jarayon shaxsiy kamolot va emotsional barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, shaxsiy identifikatsiya inqirozining kechish darajasi oilaviy muhit, tengdoshlar bilan munosabat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bevosita bog'liq. O'z vaqtida ko'rsatilgan psixologik yordam o'smir qizlarning o'zini anglash jarayonini yengillashtirib, ularning emotsional va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga imkon yaratadi.

Mazkur tadqiqot natijalari o'smirlik davri psixologiyasini chuqurroq anglash, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish, shuningdek psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, olingan xulosalar gender tengligi va ijtimoiy omillar shaxsiy identifikatsiya jarayoniga ta'sirini hisobga olgan holda, psixologik va pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Маслова В. А. Лингвокультурология : учебное пособие.-Москва : Академия, 2018.-208 с.
2. Суперанская А. В. Общая теория собственных имен.-Москва : Библиоком, 2017.-312 с.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili leksikologiyasi.-Toshkent : Fan, 2016.-240 b.
4. Mirtojiyev M. O'zbek tili semantikasi.-Toshkent : Universitet, 2019.-198 b.
5. Madvaliyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati.-Toshkent : O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.-680 b.
6. Маслов Ю. С. Введение в языкознание.-Москва : Высшая школа, 2018.-272 с.
7. Гумбольдт В. О разнообразии построения человеческих языков и его влияния на духовное развитие человечества.-Берлин, 2017.-295 с.